

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 541 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскарровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джохонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
AGROKLAFTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	495
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRT LARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....	507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	512
Umarova Munira Muxitdinovna	



JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....	516
Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEXANIZMLARI	524
Matkarimov Anvar Tajimatovich	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH	528
Qutbtiddinov Hikmatillo Quدراتillo o'g'li	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	533
Ismailov Bobir Salomovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	540
Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	545
Fayzullayev Murodjon Nematulayevich	



QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchi

Raqamli texnologiyalar va buxgalteriya hisobi kafedrası assistenti

ORCID: 0009-0009-9928-0607

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida kapital qo'yilmalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, kapital qo'yilmalar auditining hozirgi holati atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ichki va tashqi auditni o'tkazish amaliyoti o'rganilib, ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, kapital qo'yilma, audit, ichki audit, audit rejasi, audit dasturi, auditorlik hisoboti, audit xulosasi.

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the essence and specific features of capital investments in agricultural enterprises, as well as the current state of capital investment auditing. The study examines internal and external audit processes and develops scientifically grounded proposals and recommendations for their improvement.

Key words: investment, capital investment, audit, internal audit, audit plan, audit program, audit report, audit opinion.

Аннотация. В статье подробно анализируются сущность и особенности капитальных вложений в сельскохозяйственных предприятиях, а также современное состояние аудита капитальных вложений. В ходе исследования рассмотрены процессы проведения внутреннего и внешнего аудита и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: инвестиции, капитальные вложения, аудит, внутренний аудит, план аудита, программа аудита, аудиторский отчет, аудиторское заключение.

KIRISH

Qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti poydevori hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, balki iqtisodiy o'sish, eksport salohiyatini oshirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligi strategik tarmoq sifatida belgilab olinib, sohani tubdan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish hamda xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Natijada 2023-yilda 426 030,2 million so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 467 000,0 million so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan joriy baholarda 9,6 foiz, taqqoslama baholarda esa 3,1 foiz o'sish ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida o'z mablag'lari bilan bir qatorda jalb etilayotgan mahalliy va xorijiy investitsiyalar bevosita korxonalarning resurs salohiyatini oshirishga, asosiy vositalar va aylanma mablag'larni to'ldirishga hamda boshqa maqsadlar uchun yo'naltirilmoqda. Ushbu jalb etilayotgan investitsiyalarning muayyan qismi asosiy fondlarga sarflanadi. Asosiy fondlarni sotib olish, modernizatsiyalash va yangidan yaratish uchun jalb qilingan investitsiyalar kapital qo'yilmalar sifatida e'tirof etiladi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritishda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Auditorlik tekshiruvi, bir tomondan, tekshirilayotgan obyektning holati, saqlanishi va mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanilishini ta'minlasi, ikkinchi tomondan, buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, kapital qo'yilmalar auditi asosiy vositalarni qurish va sotib olish, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini amalga oshirish, chorva mollarini asosiy podaga o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni nazorat qilish, unumsiz xarajatlarning oldini olish hamda kapital qo'yilma obyektlarini to'g'ri baholash orqali axborotlarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yilmalarning ichki va tashqi auditini amalga oshirish jarayonida ushbu qo'yilmalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish, auditning xalqaro standartlarini qo'llash, audit rejasi va audit dasturini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda tatbiq etishda qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish kapital qo'yilmalar auditini takomillashtirish, moliyaviy axborotlarning ishonchliligini oshirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni sotib olish, qurish, rekonstruksiya qilish va kengaytirish bilan bog'liq xarajatlar bo'lib, qishloq xo'jaligi korxonalarining umumiy xarajatlari tarkibida yuqori salmoqqa ega. Shu sababli kapital qo'yilmalarning mohiyati, ularning ichki va tashqi auditini amalga oshirish masalalari uslubiy hamda ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinib kelinmoqda.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "kapital qo'yilmalar (kapital mablag'lar)" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga tegishli asosiy fondlarni yaratish, ularni yangilash va mavjud fondlarni ko'paytirish, shuningdek obyektlarni qurishga sarflanadigan, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mablag'lar kapital qo'yilmalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standartiga muvofiq, kapital qo'yilmalar quyidagicha izohlanadi: "asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalar, shuningdek mahsuldor va ishchi hayvonlarning (qiymatidan qat'iy nazar, aylanma mablag'larga kiruvchi parrandalar, quyonlar, asalarilar, qo'riqllovchi itlar hamda tajriba uchun mo'ljallangan hayvonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil etish bo'yicha xarajatlar".

Iqtisodchi-olim O.A. Danilova kapital qo'yilmalarni "asosiy vositalarni tiklash va ko'paytirishga yo'naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari" sifatida ta'riflaydi. Mazkur ta'rifda kapital qo'yilmalarning xarajat sifatidagi mohiyati yoritilgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi korxonalariga xos bo'lgan kapital qo'yilmalar xususiyatlari yetarli darajada aks ettirilmagan.

L.S. Gafurova kapital qo'yilmalarni quyidagicha izohlaydi: "kapital qo'yilmalar asosiy fondlarga (asosiy vositalarga) yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, ularga yangi qurilish xarajatlari, mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash, mashinalar, uskunalar, asbob-uskunalar va inventarlarni sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari hamda boshqa xarajatlar kiradi".

R.D. Dusmuratovning fikriga ko'ra, iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar deganda asosiy vositalarni yangilash bilan bog'liq xarajatlar tushuniladi. Muallif ta'kidlashicha, hozirgi davrda mamlakatimizda kapital qo'yilmalar asosan asosiy vositalarga yo'naltiriladigan investitsiyalar shaklida amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi tadqiqotlarda kapital qo'yilmalarga oid umumiy nazariy qarashlar keltirilgan va ularning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi sohasidagi kapital qo'yilmalar o'ziga xos jihatlari yetarlicha atroflicha tadqiq etilmaganligini ko'rsatadi.

Kapital qo'yilmalar audit bo'yicha iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida ushbu auditning alohida jihatlarni yoritib o'tganlar. Ayrim tadqiqotlarda auditning maqsadi, boshqalarida tashkiliy jihatlari, yana boshqalarida esa uslubiy masalalari tahlil qilingan. Jumladan, V.A. Rysina va Ye.I. Lomekolar kapital qo'yilmalar auditining maqsadini quyidagicha izohlaydi: "kapital qo'yilmalar auditining asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan kapital qo'yilmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligi yuzasidan auditorlik xulosasini tayyorlashdan iborat".

I.V. Silantev esa auditning tashkiliy jihatlari to'xtalib, kapital qo'yilmalar auditini tashkil etishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur mavzuga oid ilmiy manbalarda umumiy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, kapital qo'yilmalar auditining mohiyatini chuqur ochib berish, uning metodologik asoslarini aniqlash hamda qishloq xo'jaligi sohasiga xos jihatlarni yaxlit tizim sifatida tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmaganini ko'rish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda respublikamizda qabul qilingan mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi-olimlarining ilmiy ishlari, shuningdek, faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Jumladan, jalb qilingan investitsiyalar, ulardan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar hamda ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi.

Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda kapital qo'yilmalarning mohiyati va ularning auditiga oid ma'lumotlarni kuzatish, guruhlash, taqqoslash, mantiqiy tahlil qilish hamda umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Qishloq xo'jaligi korxonalarida, makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar singari, kapital qo'yilmalar xarajatlarning alohida turi hisoblanadi. Ularning samaradorligini ta'minlash orqali korxonaning barqaror rivojlanishiga erishiladi. Kapital qo'yilmalar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish, shuningdek asosiy vositalarni qurish, modernizatsiya qilish va kengaytirish uchun amalga oshiriladigan xarajatlardan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yerlarni obodonlashtirish, ishchi va mahsuldor hayvonlar podasini to'ldirish, ko'p yillik o'simliklar (daraxtlar)ni ekish va parvarishlash, irrigatsiya hamda melioratsiya ishlariga yo'naltirilgan xarajatlar ham kapital qo'yilmalar tarkibiga kiritiladi.

Hozirgi kunda "investitsiyalar" va "kapital qo'yilmalar" kabi iqtisodiy atamalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Investitsiya – bu xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan o'z korxonasiga yoki boshqa subyektlarga jalb etilgan mablag'lar bo'lib, ularning asosiy maqsadi kelgusida iqtisodiy foyda olishdan iboratdir. Kapital qo'yilmalar esa xarajatlar sifatida namoyon bo'lib, ushbu xarajatlar subyektning moliyaviy holatiga bog'liq holda joriy yoki keyingi yillarda o'z mablag'lari yoxud qarzga olingan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

Mazkur tushunchalar o'rtasidagi farqlar mavjudligi sababli buxgalteriya hisobining schotlar rejasida qisqa muddatli investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyalar uchun alohida buxgalteriya schotlari, shuningdek kapital qo'yilmalarni hisobga olish uchun mustaqil buxgalteriya schoti belgilangan.

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar o'z mohiyatiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi. Ushbu tasnif 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Qishloq xo'jalik korxonalarida kapital qo'yilmalarning turlari

Buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishi auditorlik tekshiruvlari hamda ichki nazorat tizimi orqali doimiy ravishda nazorat qilinadi. Kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarida, shuningdek ularni moliyalashtirish uchun investitsiya mablag'larini jalb etishda kapital qo'yilmalar to'g'risidagi axborotlarning ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishonchlilik ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari asosida ta'minlanadi.

Kapital qo'yilmalar auditining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektda kapital qo'yilmalar hisobi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq yuritilayotganligini aniqlash, moliyaviy hisobotda aks ettirilgan kapital qo'yilmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligi yuzasidan auditorlik xulosasini shakllantirishdan iboratdir.

Auditor kapital qo'yilmalar auditini amalga oshirish jarayonida qurilish ishlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish, asbob-uskunalarini o'rnatish, yerlarni obodonlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlari, ko'p yillik daraxtlarni ekish va parvarishlash, yirik yoshdagi hayvonlarni sotib olish, shuningdek asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar hisobining to'g'ri yuritilganligini tekshiradi. Bundan tashqari, kapital qo'yilmalar natijasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan obyektlar va tugallanmagan kapital qo'yilmalar (qurilishlar)ning to'g'ri baholanganligi, analitik va sintetik hisobning o'z vaqtida hamda to'g'ri yuritilganligi, moliyaviy hisobotda kapital qo'yilmalar bo'yicha keltirilgan axborotlarning ishonchliligi baholanadi.




Qishloq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yimlar bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining ishonchliligi va qonuniyligi yuzasidan ob'ektiv xulosa chiqarish uchun auditor quyidagi masalalarni puxta bilishi lozim:

- ichki nazorat tizimida kapital qo'yimlar ustidan nazorat holatini baholashni;
- buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirish tartibini;
- kapital qo'yimlar bilan bog'liq hisob-kitoblarni;
- kapital qo'yimlar bo'yicha daromadlarni tan olish va xarajatlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini;
- kapital qo'yimlar inventarizatsiyasi hamda kapital qo'yimlar natijasida vujudga kelgan inventar obyektlarni baholashni.

Kapital qo'yimlar auditini takomillashtirishda uning tashkiliy jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. Xususan, kapital qo'yimlar auditining rejasini va audit dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Audit rejasining puxta va asosli tuzilishi auditorlik tekshiruvining belgilangan muddatlarda va yuqori ishonchlilik darajasida o'tkazilishini ta'minlaydi. Audit rejasidan so'ng audit dasturini tuzish maqsadga muvofiq bo'lib, unda audit obyektlari bo'yicha auditor tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruv bosqichlari, foydalaniladigan manbalar, usullar va mas'ul ijrochilar aniq belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yimlar auditini o'tkazishda auditor amalga oshirilayotgan biznes jarayonlari va xo'jalik operatsiyalarining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligiga yanada kengroq e'tibor qaratishi lozim. Kapital qo'yimlar auditini takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida auditni o'tkazish ketma-ketligini aniq belgilab olish zarur. Shu munosabat bilan kapital qo'yimlar auditini amalga oshirish ketma-ketligini 2-rasmda keltirilgan tartibda o'tkazishni taklif etamiz.



2-rasm. Kapital qo'yimlar auditini o'tkazish ketma-ketligi

2-rasmda taklif qilinayotgan kapital qo'yimlar auditining ketma-ketligi auditorlik tekshiruvlarini tartibga soladi, sifatini oshiradi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinib, ularni amalga oshirish uchun izchil iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan hozirgi sharoitda yangi texnika va uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi bog'lar tashkil qilish, mahsuldor hayvonlarni xarid qilish hamda yerlarni obodonlashtirish bo'yicha kapital qo'yilmalar hajmining oshishi kuzatilmoqda. Shu bois kapital qo'yilmalar bo'yicha axborotlarning ishonchliligini ta'minlashda ularning ichki va tashqi auditini xorijiy davlatlar tajribasi hamda xalqaro audit standartlari asosida izchil takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Kapital qo'yilmalar audit bo'yicha taklif etilgan audit rejasi va audit dasturining amaliyotda qo'llanilishi ushbu audit turini takomillashtirishga xizmat qilib, auditorlik tekshiruvlarining sifatini va ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, taklif etilayotgan kapital qo'yilmalar auditini o'tkazish ketma-ketligi qishloq xo'jaligi korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini tartibga soladi, ularni sifatli va tizimli amalga oshirishga sharoit yaratadi hamda ichki va tashqi audit natijalarining ishonchliligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 26-dekabr "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" O'RQ-598-sonli qonuni. <https://lex.uz/mact/4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoniga 2-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/6811936>
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kapital-qoyilmalar-uz/>
4. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве. Учебник. А.П.Михалкевич, П.Я.Папковская, С.К. Матальцкая и др. 3-е изд., перераб. и доп./Под общ. ред. А.П.Михалкевича. Мн.: БГЭУ, 2004, 612 стр.
5. Пизенгольц М. 3. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве: Учебник.-М.: "Финансы и статистика", Т.2., 4-е изд., перераб. и доп. 2002. с.400.
6. Гафурова Л.С. "Организация учета капитальных вложений". Журнал "Мировая наука" №4 (49) 2021. file:///C:/Users/User/Desktop
7. Данилова О.А. "Бухгалтерский учет: учебное пособие для студентов". -Йошкар-Ола, 2024. 113 с.
8. Рысина В.А., Ломеко Е.И. "Аудит капитальных вложений предприятия".// "Молодой ученый". 2016. №17, стр.463-466.
9. Силантьев И.В. "Методические особенности проверки капитальных вложений на примере газораспределительной организации".// Экономика и земельные ресурсы, стр.166-170.
10. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. Monografiya. -T.: Moliya, 2017. b.22
11. Alikulov A., Ishturdiyev X. Asalarichilikning qishloq xo'jaligi iqtisodiyotidagi o'rni va uni rivojlantirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, aprel. Maxsus son. 89-93 betlar
12. Eshmuradov U. T. Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.// yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100